

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIYVA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“TURIZM VA IQTISODIYOT” FAKULTETI

Mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish

101-guruh talabasining

“Turizm asoslari”

fanidan yozgan

REFERATI



Mavzu: O'zbekistonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari

Topshirdi: Jabbarov Nurbek

Qabul qildi: Bekturdiev Juratbek

Urganch 2016

Reja:

- 1. Turizm va turizmning turlari.**
- 2. O'zbekistonning turistik mintaqalari.**
- 3. O'zbekistonning tarixiy-obidalari/**

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Jabborov Nurbek Atanazarovich

(Urganch, O'zbekiston)

Jahon xo'jaligida turizm eng serdaromad sohalardan biridir va aynan shu maqsadda ko'pgina mamlakatlar mazkur sohaning rivojiga alohida e'tibor qaratadilar. Mamlakatimizda turizm industryasining yuksaltirish orqali ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, hamda uning natijasida ushbu sohadan keladigan daromad miqdorini oshirish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xo'sh turizm va turizm industriyasi nima? Turizm – fransuzcha “tour” so'zidan olingan bo'lib – “sayr, sayohat” degan man'oni bildiradi. Bir so'z bilan aytganda turizm kishilarning doimiy istiqomat qilayotgan joyidan – sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy, amaliy yoki boshqa maqsadlarda boshqa joylarga haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddat sayohat qilishi tushuniladi. Turizm industriyasi esa turizm va uning rivoji uchun tashkil qiladigan turistik markazlar, qolaversa bevosita turistlarga xizmat qiladigan transport infratuzilmasi, mehmonxonalar, motellar va sayyohlar uchun tashkil qilingan maxsus yotoqxonalar, umumiy ovqatlanish maskanlari, muzeylar, istirohat va hayvonot bog'lari kabi sayyohlarni o'ziga jalb qila oladigan, hamda ularga malakali xizmat ko'rsatuvchi sohalarning umumiy majmuasidir.

Turizmni turistik tashkilotlar orqali turistik marshrutlar bo'yicha uyushtirishi aniq bir maqsadga qaratilganligidadir. Aynan shuning uchun turizm juda ko'p turlariga va shakllariga bo'linadi:

1). Ko'lamiga ko'ra

- a) ichki turizm – fuqarolarning o'z mamlakati bo'ylab sayohat uyushtirishi
- b) tashqi turizm - fuqarolarning boshqa bir mamlakatlarga sayohati, yoki xalqaro miqyosdagi turizm kompleks ravishda dunyo bo'ylab bir nechta mamlakatlarga sayohat uyushtirishi.

2). Maqsadiga ko'ra

- a) havaskorlik turizmi – fuqarolarning shunchaki qiziqish yohud ma'naviy hordiq chiqarish, dam olish maqsadidagi sayohat uyushtirishi.
- b) ilmiy yoki bilim olish turizmi – fuqarolarning biror joyni o'rganish maqsadidagi uyushgan yoki uyushmagan holatdagi sayohatlar uyushtirishi.
- d) davolanish va sog'lomlashtirish turizmi – fuqarolarning mamlakat ichida yoki xalqaro miqyosda davolanish yoki sog'lom bo'lish maqsadida togli hududlarga, dengiz boylariga va boshqa joylarga sayohat uyushtirishi.

3). Sohalari bo'yicha

- a) agroturizm - mutaxassislar yoki fuqarolarning qishloq xo'jaligini o'rganish maqsadida sayohatlar uyushtirishi
- b) avtoturizm - fuqarolarning avtomobillar yordamida dunyoni aylanib chiqish maqsadida sayohatlar uyushtirishi
- c) veloturizm – fuqarolarning velosipedlar yordamida bevosita tabiat qiyinchiliklariga bardosh berib, sayohat davomida barcha hodisalarni kuzatish maqsadida sayohatlar uyushtirishi
- d) ekoturizm - mutaxassislar yoki fuqarolarning ekologik vaziyatlarni organish maqsadida sayohatlar uyushtirishi
- f) sport turizmi – fuqarolarning turli sport musobaqalariga muxlislik qilish maqsadida mamlakat yoki dunyo miqyosida sayohat uyushtirishi
- j) suv turizmi – fuqarolarning bevosita suv havzalarida bo'lish maqsadida sayohatlar uyushtirishi.

Dunyoning juda ko'p mamlakatlaridaturizm hozirgi kunda ommaviy tus olganeng serdaromad sohalardan biridir, hatto ayrim davlatlarning yalpi ichki daromadining asosiy qismi uning hissasiga to'g'ri kelishini ham kuzatishimiz mumkin.Shuni hisobga olib, keyingi paytlarda mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish maqsadida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi 1992 y. 27 iyulda tuzilgan.Ona yurtimizda turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish kabi bir qator dolzarb masalalar kompaniyaning asosiy vazifasi sanaladi. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan:

-an'anaviy yo'nalishlar: Toshkent- Samarqand- Buxoro- Xiva- Toshkent va Toshkent- Samarqand- Buxoro-Shahrisabz,- Toshkent. Bu yo'nalishlar mamlakatimizdagi eng qadimiy yodgorliklar va boshqa tarixiy-madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq;

- ekologik turizm yo'nalishlari: Orol dengizi va Orolbo'yi ekologik regioni,Chimyon- Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi,Kitob geologik qo'riqxonasi va Zomin qo'riqxonasi kabi mamlakatimizdagi qo'riqxonalar. Bu yo'nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay g'amda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog'liq;

- arxeologik turizm yo'nalishlari:Qoraqalpog'iston, Xorazm, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo'ylab, mazkur yo'nalishda yurtimiz tarixiga oido'zida uzoq o'tmishning sir-sinotlarini yashirgan eng qadimiy arxeologik yodgorliklar bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi;

- ekstremal turizm yoʻnalishlari: Chimyon, Fargʻona vodiysi, Orol boʻyi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari boʻylab;

- diniy turizm yoʻnalishi Toshkent- Samarkand- Buxoro- Toshkent, Toshkent- Termiz- Dalvarzintepa- Termiz- Toshkent kabi mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarini ziyorat qilish bilan bogʻliq.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat subʼyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining "Turizm toʻgʻrisida"gi qonuni qabul qilingan (1999 y. 20 avg .). Shu bilan birga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "2005 yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi toʻgʻrisida"gi farmoni (1999 y. 15 aprel) sohani rivojlantirishda muhim omil boʻldi.[4]

Mamlakatimizda turizm tashkilotlari xizmatlarini takomillashtirish hamda kichik va oʻrta biznesda turistik korxonalarning xizmat koʻrsatish bozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani ushbu sohasiga jalb qilish maqsadida 1998 yili Oʻzbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi" tashkil etildi. Mazkur uyushma 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan yaqindan aloqada boʻlib faoliyat olib bormoqda. Oʻzbekistonda "Kumushkon" turistik bazasi va "Sanzar" kemping majmuasi mavjud boʻlib, ular "Oʻzbekturizm" milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. Shu bilan birga Chorvoq, Chimyon, Boldirsoy dam olish oromgohlari va yuzdan ortiq xususiy mehmonxonalar ishlab turibdi. Oʻzbekistonda koʻplab turistlarni qabul qilish va ularga xizmat koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlgan mehmonxonalar soni tobora oʻsib borishi bilan birga ularga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifati hamda turi oshib bormoqda.

Oʻzbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan meʼmoriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning "Butun dunyo meʼrosi" ning maxsus roʻyxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va meʼmoriy inshootlar oʻtmish zamonlarni oʻzida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol oʻynaydi.[4]

Turistlarni oʻziga jalb qiluvchi tarixiy va zamonaviy oʻbektlar, rekratsion dam olish joylari mamlakatimiz hududi boʻyicha notekis joylashgan boʻlib, shartli ravishda 6 ta rekratsion mintaqaga ajratish mumkin.

- I. Toshkent turistik mintaqasi.
- II. Fargona turistik mintaqasi.
- III. Samarqand- Shahrisabz turistik mintaqasi.

- IV. Surxondaryo turistik mintaqasi.
- V. Buxoro-Karmana turistik mintaqasi.
- VI. Xiva-Nukus turistik mintaqasi.

I. Toshkent turistik mintaqasiga Toshkent sahri va Toshkent viloyatidagi muhim dam olish maskanlari joylashgan hududlar kiritiladi. Dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri va o'zining 2200 yilligini nishonlagan azmi Toshkent zamonaviy ishlab chiqarish markazidir, ayni paytda tarixiy yodgorliklar va zamonaviy osmono'par binolarning o'zaro uyg'unligida zamonaviy qiyofadagi betakror shahardir.

Bugungi kunda O'zbekistonda yuzga yaqin muzeylar ishlab turibdi va ularning yarmi mamlakatning poytaxtida joylashgan. Ularning har biri o'zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo'lib, uning ulkan ko'k gumbazi Samarqandning qadimiy gumbazini eslatadi. Uning eksponatlari O'zbekiston hududida o'rta asrlardagi davlatchilik shakllarini shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat va san'atning rivojlanishini aks ettiradi.[4]

Shuningdek poytaxt viloyatda ham dam olish uchun qulay bir qator maskanlar tashkil qilingan, misol tariqasida Chimyon tog' sport kompleksi, Chorbog' dam olish markazi, Toshkent dengizi (Tuyabo'g'iz suvombori) kabi dam olish mumkin bo'lgan rekrasion manzillar kiritilgan bo'lib, aynan ushbu maskanlardan mahalliy va chet el sayyohlari dam olish, davolanish hamda boshqa maqsadlarda foydalanishi mumkin.

II. Fargona turistik mintaqasi.

O'zbekiston durdonasi hisoblangan Farg'ona vodiysi o'zining maftunkor maskanlari bilan alohida o'rin egallaydi. Qadimiy Qo'qon va Marg'ilon shaharlari bilan birga so'lim Shoximardon, Chortoq va mashhur Chust, Rishton o'ziga kishilarni jalb qilganidek, zamonaviy qiyofadagi Andijon, Namangan va Farg'ona nafaqat mahalliy, balkim xorijlik mehmonlarni ham o'ziga tortadi.

III. Samarqand- Shahrizabz turistik mintaqasi.

Asrlar mobaynida O'zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo'li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o'ynadi. Birgina Samarqand esa "Buyuk Ipak yo'lining yuragi" deb nom oldi[4]

Hozirgi kunda Samarqand aholisining soni ko'pligi jihatidan mamlakatimizda ikkinchi o'rinda turuvchi maftunkor shahar bo'lib, qadimda u "Islom me'morchiligi marvaridi", "Dunyo ko'zgusi" kabi nomlar bilan ta'riflangan. Qadimiyligi bilan dunyoning ko'pgina Rim, Afina va Vavilonga teng bo'lgan Samarqand o'zining 2750 yilligini nishonladi. Samarqand- buyuk davlat hukmdori Amir Temur davrida temuriylar davlati poytaxti etib tanlangan keyin o'zining eng yuqori

gullab-yashnash nuqtasiga yetdi. Amir Temurning nevarasi Ulug'bek bobosini an'analarni davom ettirdi va shahar beqiyos darajada gullab yashnadi. Bugungi Samarqand yanada go'zal va maftunkor, shahardagi qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralar orqali har qanday kishi qadim tarixning nafasini his etish va undan ma'naviy oziqa olishi mumkin.

Shahardagi Registon maydoni takrorlanmas me'moriy obidalar majmuasi bo'lib, qadimda bu maydon savdo va ijtimoiy markaz vazifasini bajargan. Bu yerdagi Ulug'bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari yahlit uyg'unlikda kishilarni o'ziga yanada rom aylaydi.

Go'ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvarididir. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi jumladan sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug'bek qabrlari joylashgan. Havorang lolalarning yaproqlari tig'iz qilib joylashtirib chiqilgan g'unchaga o'xshash Go'ri-Amir maqbarasi sayyohlar uchun juda taniqli joy.[4]

Samarqanddagi bir qator tarixiy obidalar jumladan: Registon maydoni, Go'ri-Amir, Bibi-Xonim, Shoxi-Zinda maqbaralari, Ulug'bek rasadxonasi va shuningdek yana bir qancha tarixiy yodgorliklar, shaharga tashrif buyuruvchilarni o'ziga maftun qilayotgan bo'lsa, ushbu manzilning zamonaviy qiyofasi hamda namunali turistik xizmatlarning a'lo darajada yo'lga qo'yilganligi sayyohlarda mamlakatimiz haqida ijobiy fikrlar uyg'onishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur turistik mintaqaga yana Shahrisabz shahridagi tarixiy obidalarni, Kitobqo'riqxonasi, imom Buxoriy maqbarasi (Chelak qishlogidagi) hamda bir qator tabiiy rekrasion dam olish maskanlarni kiritish mumkin.

IV. Surxondaryo turistik mintaqasi.

Mamlakatimizning eng janubiy o'lkasi Surxondaryo o'ziga xos tabiatga va ko'pgina tarixiy obidalarga ega. Subtropik iqlim va baland tog'lar o'lka tabiatida muhim o'ziga xoslikni shakllantirgan. Rang-barang tabiat mo'jizalariga monand ravishda viloyatning ming yillik tarixidan boxabar qiluvchi ko'hna arxeologik obidalar ichida At-Termiziy maqbarasi, Jarqo'rg'on minorasi, Dalvarzintepa yodgorligi sayyohlarni o'ziga keng miqyosda jalb qilib kelmoqda.

Eramizning boshlarida Termiz Markaziy Osiyoning asosiy buddizm markazi bo'lgan. Qora-Tepadagi toshga o'yilgan budda monastiri, Fayoz-tepadagi Budda ibodatxonasi, ko'plab ohakli loydan qilingan budda haykallar qoldiqlari sayyoh va budda sig'inuvchilar uchun mashxur joy.

Termiz faqatgina o'zining budda dini yodgorliklari bilangina mashxur emas. Bu yerda o'rta asrlar boshiga tegishli bo'lgan bir qancha qiziqarli tarixiy yodgorliklar

ham bor. Ularning orasida Hakim at-Termiziyning qabri, Sulton Saodat ansambli (X-XVII asrlar) va afsonaviy Qirq-Qiz qal'asi (IX asr) mavjud.[4]

Boysun qirlarida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Boysun bahori" nomli folklor-etnografik jamoalar festivali nafaqat mahalliy, balkim chet ellik mahmonlarni ham o'ziga jalb qilmoqda.

V. Buxoro-Karmana turistik mintaqasi.

Qadimiy ushbu shaharning yoshi 2500 yildan ortiq bo'lib, o'zida 140 dan ortiq qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro mahalliy va chet elliksayyohlarning eng sevimli joylaridan biridir. Buxoro amirlarining mustahkam qarorgohi Ark, Ismoil Somoniy maqbarasi, Minorai Kalon, Labi hovuz kabi yodgorliklar bilan birga mustaqillik yillarida bunyod qilingan Buxoroning ming yillik tarixini aks ettiruvchi shahar monimenti, muqaddas Buxoroning tengi yo'q marvaridlaridir.

Mintaqaning ikkinchi kichik markazi Karmanadir, unda ajdodlarimiz tomonidan bunyod qilingan tarixiy obidalar bilan birga, ming yillik tarix sir-sinoatlarini o'zida jamlagan Sarmishsoy qoyatoshlaridagi rasmlar, Qizilqum bag'ridagi geologiya toshloq o'rmoni ham ko'pchilikni o'ziga jalb qiladi.

VI. Xiva-Nukus turistik mintaqasi.

Ushbu turistik rekratsion mintaq Xorazmshohlar davlatchiligining boy tarixiy obidalarini, hamda Amudaryo sohillaridagi to'qayzorlarida tashkil qilingan "Amudaryo rezervati", shuningdek Orolbo'yi ekologik mintaqasi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Buyuk ipak yo'li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahar Xivadir. U "ochiq osmon ostidagi muzey" deb nomlanadi. Shahar markazidagi ko'plab me'moriy yodgorliklar joylashgan Ichan-Qala majmuasi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. Buyuk Ipak Yo'lining chorrahasida joylashganligi va bu yerdan karvon yo'li o'tganligi sababli Ichan-Qalaga dunyoning to'rt tomoniga qaragan to'rtta darvozalar qurilgan. Qal'a devorining balandligi huddi haqiqiy sharq ertaklaridagi kabi shaharga maftunkor ko'rinish beradi.[4]

Xivada O'zbekistondagi eng baland minora Islom-Xo'ja minori joylashgan bo'lib aksariyat sayyohlar ushbu tarixiy obidaga chiqishni orzu qiladilar, hamda unda turib butun shaharni tomosha qilish imkoniga ega bo'ladilar. Xivada xon saroylaridan bir qanchasi saqlanib qolgan bo'lib, ulardan eng nomdori marosimlar o'tkaziladigan, xon dam oladigan va xon xaramlari yashaydigan zal joylashgan ulkan Tosh-xovli saroyidir. Ichan-Qala baland devor bilan o'rab olingan-ki, mazkur devor balandligi 10 metrdan ortiq va kengligi 2 ta ot arava bir vaqtning

o'zida harakatlangudek qilib ishlangan. Shahardagi o'nlab muzeylar qadim tarixdan boxabar qilib turadi.

Qoraqolpog'iston mazkur turistik mintaqaning ikkinchi ajralmas qismidir, yohud bu hududdagi mungli qal'alar hozirgi davr va qadim o'tmishni bog'lovchi tirik rishtadir.

Bu yerda joylashgan Ayoqqal'a, Tuproqqal'a, Guldursinqal'a, Katqal'a, Shilpiqqal'a, Yanboshqal'a, Hozlimxon –Suluv tarixiy yodgorliklari, hamda Sulton Uvays maqbarasi, shuningdek Nukus shahridagi Savetskiy nomidagi muzey mahalliy va chet ellik sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Yuqoridagi turistik mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadga keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish lozim.